

DARSLARDA MUAMMOLI VAZIYAT METODLARDAN FOYDALANISH

Akbarova Shaxlo Sodikovna

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2-son
Toshkent akademik litseyi matematika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muammoli vaziyat metodlari haqida kengroq ma'lumot berilgan va misollar orqali kengroq yoritilgan.*

Kalit sozlar: *muammoli vaziyat, muammoli vaziyat turlari, muammo texnologiyasi*

Mamlakatimizning bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillari ma'naviy salohiyatimizni va iqtisodiy qudratimizni yanada oshirish, o'quvchilarning bilim va salohiyatlarini jahon andozalari darajasiga ko'tarishni taqozo etmoqda. Bu esa o'z navbatida ta'lin tarbiya jarayonini zamon talabi darajasida tashkil etish va yangi ta'lim texnologiyalarini dars jarayonida tadbqiq etishni talab etadi. Bilamizki, o'quvchilar ta'lim muassasalarida fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish bilan birgalikda, o'z fikrini boshqalarga tushuntira olish va boshqalarni tushuna olish, munozaraga kirishish, ya'ni bilim, ko'nikma va malakalardan kundalik hayotiy vaziyatlarda foydalana olishlari zarur. Buning uchun, avvalo, o'qituvchi o'z fani bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, ilg'or zamonaviy o'qitish usullaridan muntazam xabardor bo'lib borishi hamda o'quv mashg'ulotlari jarayonida ulardan samarali foydalanish yo'llarini kashf eta olishi lozim. Shundagina o'qitish sifati ham, o'quvchilarning fanni o'zlashtirish darajasi ham kutilgan darajada yuqori bo'ladi. Bugungi kunda rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasining asosiy bo'g'inihisoblangan muammoli ta'lim eng samarali o'qitish usullaridan biri hisoblanadi. Muammoli o'qitishni chuqur o'rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan bo'lib, uning asosida "Tafakkurm uammoli vaziyatdan boshlanadi" degan g'oya yotadi va fikrlash psixologiyasi nuqtayi

nazaridan muammoli o'qitish g'oyasi va tamoyillari S.L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.Y.Lerner tomonidan ishlab chiqilgan. Muammoli ta'lim deyilganda, o'qituvchi (pedagog) rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo o'quvchitalabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, o'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi. Mashg'ulot jarayonida fan o'qituvchisi diqqat-e'tiborni tahlil qilinishi kutilayotgan muammoga qaratadi. Negaki, muammoli ta'lim texnologiyasining asosini muammoli vaziyat tashkil qiladi. Ta'lim oluvchilar muammoning yechimini topishga astoydil harakat qiladilar. Bunda muammoli izlanuvchanlik faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, eng muhimi, o'quvchilarda o'quv muammosi, uning mohiyati, amaliy ahamiyati kabi masalalar haqida aniq tushunchalarni uyg'otish va izlanuvchanlik faoliyatiga nisbatan motivatsiyani yuzaga keltirish lozim. Yana muammoli o'qitish mashg'ulotlarini tashkil etishda fan

o'qituvchisi hech qachon o'quvchilarga muammoning yechimini aytish kerak emas, balki ularga hal eta olishlariga turtki berish, mashg'ulotlarda va hayot faoliyatlarida zarur bo'lgan axborot, voqea, vaqt va hodisalarni ongida qayta ishlashlariga yordam berishi lozim bo'ladi. Buning natijasida o'quvchilar kasbiy bilimlarga, ko'nikmalarga, malakalarga ega bo'ladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, yangi bilimlar ma'lumot uchun emas, balki muammo yoki muammolarning yechimi uchun beriladi. Muammoning yechimi esa, o'z navbatida, ijodiy fikrlashni taqozo etadi. Agar o'quvchi muntazam tayyor bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga o'rgatilgan

bo'lsa, uning ijodiy qobiliyatini so'ndirib qo'yish ham mumkin, negaki, fikrlash jarayoni muammoli masalalarni yechishda rivojlanadi. Muammoli ta'lim turi ilmiy-uslubiy jihatdan 3 xil ko'rinishga ega: 1. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish. 2. Muammoning qo'yilishi. 3. Muammoning yechimini topish. Muammoli ta'lim texnologiyalaridan adabiyot darslarida, ayniqsa, badiiy asarlar

tahlili jarayonida foydalanish o'quvchini asar bilan to'liq tanishib chiqishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, adabiyot darslarida muammoli savollar qo'yilishi o'qituvchiga o'quvchilarning tinglash va muloqot qilish ko'nikmalarini, turli nuqtai nazardan tushunish malakasini rivojlantirish, bahsli masalalarni hal qilish, tahliliy mushohada yuritish vakiflash layoqatini oshirish, ularning o'z fikrini shakllantirish mahoratini mustahkamlash imkoniyatini beradi. Dars jarayonlarida Nima deb o'ylaysiz?, Fikringiz qanaqa?, Sizningcha qanday?, Nega bunday deb o'ylaysiz?, Nimalar asosida bunday xulosaga keldingiz? Kabi savollarning berilishi ham ta'lim oluvchilarga so'zlash, o'z nuqtayi nazarlarini ifoda eta olish uchun qulay vaziyatni yaratib beradi. Ona tili, adabiyot darslarida 'Muammoli vaziyat' metodini qo'llash mumkin. Ushbu metod ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sababini va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimlarini topish bo'yicha ko'nikma

va malakalarni rivojlantirishga yordam beradi yoki 'Muammo' texnologiyasi

o'rganilayotgan mavzudagi asosiy muammoni ajratib olish va muammoni o'quvchilar tomonidan mustaqil hal etilishini ta'minlashga xizmat qiluvchi texnologiya hisoblanadi. Dastlab ushbu texnologiyalarni qo'llab ko'rganimizda bir necha muammolarga duch kelishimiz mumkin. Jumladan, o'quvchilar oldilarida turgan vazifaning yechimini topa olmasligi yoki muammoli savol berilganda unga o'z vaqtida javob topa olmasligi v.h. Shuning uchun o'quv mashg'ulotlari jarayonida muammoli o'qitish texnologiyalaridan imkoniyat darajasida ko'proq foydalanish tavsiya etiladi. Muammoli o'qitishning asosida amerikalik psixolog, pedagog Dj. Dyui g'oyalari yotadi. Dyuning fikricha o'qitish samaradorligi shartlari o'quv materiallarini muammolashtirish bola faolligi bilan bog'liq bo'lishi kerak. Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: O'qituvchi o'quvchilarni guruhga ajratib, ularni mos o'rinlarga joylashtirgach, mashg'ulotni o'tkazish tartib qoidani va talablarni tushuntiradi. O'qituvchi guruhlarga tayyorlab kelgan topshiriqlarni beradi va vaqt beriladi. Berilgan vaqt tugagach, tayyorlangan ishni guruh vakillari o'qib eshittiradi. O'qituvchi guruhlar

tomonidan yozilgan muammoli qog'ozlarni almashtirib tarqatadi. Har bir guruh a'zosi o'zini qiziqtirgan muammoni tanlab oladi. O'qituvchi tomonidan tarqatilgan quyidagi chizmaga har bir guruh a'zosi tanlab olgan muammosini yozib, mustaqil ravishda tahlil etadi.

Muammoning turi Muammoni kelib chiqish sabablari Muammoning yechim yo'llari Texnologiya afzalliklari. O'quvchilar hamkorlikda faoliyat olib boradilar. Muammoni aniqlash ko'nikmalari shakllanadi. Diqqatni idrok qilishni, mantiqiy fikrlashni o'rganadi. Muammolar ichidan dolzarbini ajratib olishni o'rganadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Karimov.I.A. "Yuksak malakali mutaxassislar-taraqqiyot omili", T.,1995 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonun.
3. O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy dasturi.
4. Sayidaxmedov N.S. "Yangi pedagogik texnologiyalar", T., "Fan", 2003 yil.
5. Tolipov U., Usmonboyeva M., "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot asoslari", T.,2005 yil.
6. Farberman B.L. "Ilg'or pedagogik texnologiyalar", T., 2002 yil.